

NAMANGAN SHAHRI ATROF-MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

**Madrimov Rajabboy Mashrabovich (PhD) dotsent,
Yusupov Xasanboy Baxodir o'g'li mustaqil izlanuvchi
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy tadqiqot
instituti, O'zbekiston**


Annotatsiya: Ushbu maqolada Namangan shahorining yashil hududlari tahlil qilingan bo'lib ushbu shaharning yashillik darajasi boshqa hududlar va aholining yashashi hamda dam olish imkoniyatlar, atrof-muhitga ta'sir doirasi keltirib o'tilgan. Shaharning tez suratlarda kengayib borishi va aholing bir millionga yetishini hisobga olgan holatda yashil hududlarni kengaytirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Namangan shahar, yashil hudud, madaniyat bog'i, ekzotik, zamonaviy arxitektura, shaharsozlik.

Dunyo tajribasida shaharlardagi yashil hududlarni 30% tashkil qilayotganini hisobga olganda Namangan shahrida bu ko'rsatkich 5% ga ham yetmaydi, bunga sabab, Namangan shahrining hududi kichik bo'lishiga qaramasdan aholi sonining ko'pligi va zichligi, aholining tez o'sib borayotgani hamda shaharning tez rivojlanib borishi asosiy sabab hisoblanadi. Kelgusida shahar hududi rivojlanishini hisobga olgan holda undagi yashil hududlarning ulushini ham ortib borishiga erishish lozim.

Hozirgi kunda Namangan shahrida 700 mingga yaqin aholi bo'lib yaqin kelajakda shahar hududini kengaytirish ichki migratsiya hisobiga bir millonga yetishi kutilmoqda. Namangan shahari maydoni muttasil kengayib bormoqda. Shahar bugungi kunda hududiy jihatidan Davlatobod va Yangi Namangan tumanlari va shahar hokimligiga to'g'ridan to'g'ri bo'ysunuvchi hududlarga bo'linadi.

1-rasm. Namangan shahar xaritasi.





Ushbu xarita dshk.uz saytidan olingan.

Namangan shahar hududida bugungi kunda yashil hududlarning hissasi respublika shaharlari ko'rsatkichida ancha ortda ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shahar rivojlanishida bosh rejaning mavjud bo'limganligi va aholi sonining muttasil o'sib borishi hisobida yashil hududlar shakllanmagan. Shaharda "Bobur" nomidagi madaniyat va istirohat bog'i, "Yoshlar" bog'i hamda yangi tashkil qilingan "Afsonalar vodiysi" madaniyat va istiroxat bog'lari mavjud bo'lib shahar hududi va aholi soni ko'rsatkichi uchun bu juda past ko'rsatkich ekanligini ko'rish mumkin. Shahar muttasil rivojlanib borishini hisobga olib shaharning ichki hududlarida yashil hududlari rivojlantirib borish imkoniyati yo'qligi tufayli shaharning atrof hududlarni barpo qilish zarur hisoblanadi.

O'ziga xos bu yashil belbog', shahar iqlimini mo'tadillashtirish, atmosferasini yaxshilash va aholi uchun o'ziga xos ekzotik dam olish maskani bo'lib xizmat qiladi. Yashil hududlar rivojlantirish imkoniyati shahar hududining shimoliy-g'arbiy qismlarida katta. Bu hududlar adir hududlar hisoblanganligi uchun yuqori baholanadi.

Shaharlarda aholini yashash sharoitlarini qulay darajasiga ko'tarish, dam olishini ta'minlash, shahardagi sanitar holatni yaxshilash, mikroiqlimni yuzaga keltirish va sog'lomlashtiruvchi yashil hududlar maydonlarini kengaytirishda manzarali yashil daraxtzorlarning o'rni katta. Ko'kalamzorlashtirish uchun qo'llanilayotgan manzarali daraxt va buta turlari assortimentini boyitish ham muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlarida aholi yashash hududlarini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ko'kalamzorlashtirishning eng muhim vazifalaridan biri inson hayoti uchun sog'lom va to'laqonli estetik tabiiy muhit yaratishdir. Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 9-martdagi 59-sun qarori bilan "Zamonaviy arxitektura-shaharsozlik talablarini hisobga olgan holda aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etish qoidalari tasdiqlangan, 2013-yil 13-avgustdagi 223-sun qarori bilan esa "O'zbekiston Respublikasida landshaft dizaynnini rivojlantirish Dasturi" qabul qilingan va unda belgilangan vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda.

Bizning sharoitga mos keladigan va quruq iqlim sharoitlarida bemalol o'sib rivojlanadigan, yoshligidan shakl berib parvarishlangan manzarali yaproq va ninabargli daraxt ko'chatlarini yetishtirish kerak bo'ladi. Buning uchun yuqori dehqonchilik madaniyatiga ega bo'lgan manzarali ko'chatzorlar tarmog'ini kengaytirish hamda innovatsion g'oyalar va ilg'or tajribalar asosida yetishtirilgan manzarali daraxt-buta turlarining ko'chatlari miqdorini va sifatini oshirish lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori "Istirohat bog'lari va yashil zonalarni tashkil etish metodologiyasi to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash haqida 17.08.2018-yildagi 671-sun



2. Boymirzayev K., Soliyev I., & Mirzahmedov I. (2019). Qo‘qon vohasi landshaftlarining ekologik optimallashtirish. N:“Namangan” nashiriyoti.
3. Mirzakhmedovich, B. K. (2020). Geoecological Problems and their Prevention in Kokand Oasis Landscapes. Electronic Research Journal of Social Sciences and Humanities, 1, 134-137.
4. Jumaxanov Sh., (1998). Совершенствование территориальной структуры населения Наманганской области (Doctoral dissertation), Т. ТашГУ. 1998.
5. dshk.uz